

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR
VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI



"TASDIQLAYMAN"

O'ZDJTU rektor

I. Tuxtasinov

2026 yil

**Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutiga kiruvchilar uchun
13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligidan**

DASTUR

Toshkent – 2026

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi mutaxassisligi bo'yicha tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka kirish imtihoni dasturi O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining majlisida muhokama qilindi va _____ 2026 yilda foydalanishga tavsiya etildi.

Tuzuvchilar:

ped.f.d., dotsent Djurayev Dusmurod Uralovich
ped.f.d., professor Isakulova Nilufar Janikulovna

Taqrizchilar:

ped.f.d., dotsent Medetova Raushan Mamadiyarovna
ped.f.d., dotsent Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna

KIRISH

Hozirgi davrda pedagogika fani bo'lajak pedagoglarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish, ularda pedagogika fanining ilmiy-nazariy asoslarini yangicha tafakkur asosida ongli ravishda tafakkur qilishlarini tarkib toptirish, shuningdek, umumiy kasb tayyorgarliklarini metodik ta'minlashga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (23.09.2020), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy talim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son hamda 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarorlari ushbu dasturni shakllantirishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha pedagogik ma'lumotga ega har bir talabgor, qaysi fan mutaxassisi bo'lib yetishishidan qat'iy nazar o'quv-tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun zarur bo'lgan pedagogik bilim va ko'nikmalarning umumiy hajmini, umumkasbiy va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talablarini bilishlari lozim.

Pedagogik ta'limotlar tarixi talabgorning umumpedagogik bilim darajasini, pedagogik merosimizga hurmat bilan munosabatda bo'lishini aniqlaydi. Pedagogika nazariyasi esa ta'lim-tarbiya, uning rivojlanish jarayoni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xar bir tarixiy bosqichda ilmiy bilimlar darajasi bilan bog'liqligi to'g'risida aniq tasavvur hosil qiladi. Bunda maorif va pedagogikaning ijtimoiy taraqqiyot talabiga javob berganligi, ilmiy taraqqiyot bir butun tarbiya nazariyasi va amaliyoti ekanligi xisobga olingan. Ta'lim amaliyoti, shuningdek, ta'limdagi yutuqlarning muhimligi ham nazarda tutiladi. U yoki bu pedagogik konsepsiyalar, ta'limotlarni tavsiflaganda shu ta'limotlar ijodkorining hayoti va faoliyatidagi eng muhim voqealarni asos qilib olish nazarda tutilgan. Dastur maorif va pedagogika tarixini kishilik jamiyatining taraqqiyoti tarixi bilan uzviy aloqada bayon etishga mo'ljallangan. Pedagogik fikr rivojlanishini izchil o'rganish bo'lg'usi mutaxassislarga hozirgi davrda o'tmishning ilg'or pedagogikasining uzviy davomi ekanligini ko'rsatish, kelajak maorif va pedagogika taraqqiyoti yo'nalishlarini anglab olishga yordam beradi.

Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi bo'yicha malakaviy imtihonning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

talabgorlarni hozirgi zamon pedagogika fanining nazariy asoslari bilan qurollantirish;

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi (23.09.2020) Qonunini amaliyotga tatbiq etish jarayonida ta'lim samaradorligini oshirish uchun ularda zarur ko'nikmalarni hosil qilish;

pedagogik tafakkurni shakllantirish negizini yaratish;

pedagogik fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish;

Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy va boshqa mutafakkirlarning ta'limiy-axloqiy, umumbashariy qadriyatlarini, "Qur'oni Karim" va "Hadisi Sharif"da hamda mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoevning nutqlaridagi umuminsoniy va ma'naviy-axloqiy tamoyillarni bilish;

hozirgi zamon ta'lim texnologiyalarini bilish hamda ularni amaliyotda qo'llay olishdan iboratdir.

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligini o'rganish jarayonida quyidagi pedagogik tushunchalarni bilish va ko'nikmalarga ega bo'lish zarur:

ta'lim-tarbiya ishlarini mustaqillik g'oyalaridan foydalanilgan holda pedagogik qonuniyatlar va tamoyillarga uyg'un holda o'tkazish;

pedagogik faoliyatni rejalashtirishda, yaqin, o'rta davrni va istiqbolni ko'zlab maqsad, vazifalarni belgilash;

amaliyotda o'qitish hamda ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning asosiy shakllarini qo'llash;

amaliyotda o'qitish va ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning qulay metod va vositalarini qo'llash, ma'lum vaziyatlarda ulardan to'g'ri foydalana olish;

o'z oldiga qo'ygan vazifalarni to'g'ri bajarilishini tashkil etish;

shaxs faoliyati va xulqini rag'batlantirib borish;

pedagogik vaziyatlar, ta'lim-tarbiya natijalarini tahlil eta olish, jamoani o'rganish;

o'zlashtirmaslik sabablarini, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun samarali tadbirlarni belgilash;

o'z bilimini oshirib borish, amaliyotda pedagogika fanidagi yutuqlar, ilg'or tajribalardan foydalanish, qulay pedagogik tadqiqotlar o'tkazish, pedagogik faoliyatda yuzakichilik va bir qolipda ishlashga yo'l qo'ymaslik, ishga ijobiy munosabatni namoyon etish;

guruh rahbari va tarbiyachi-murabbiy vazifalarining samaradorligiga erishish, tashqi ta'lim, ota-onalar, mahalla, jamoatchilik bilan o'z-o'zini boshqarishni tashkil etish.

Talabgor "Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi" ixtisosligidan malakaviy imtihonini topshirish davomida zamonaviy ta'lim texnologiyasi, kompyuter, axborot texnologiyasi, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, pedagogik mazmundagi amaliy, ilmiy tadqiqot topshiriqlarini bajara olishini namoyon eta olishlari zarur.

Dasturda "Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi"dan maslahatlar 32 soatga mo'ljallangan. Maslahatlarda dasturning mazmuniga kiritilgan ayrim mavzular muhokama etiladi, munozaralar o'tkaziladi, talabgorlarning axborotlari eshitiladi. Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligidan o'rganilishi zarur bo'lgan minimum bilimlar mazmuniga egaligi tinglanadi. Jumladan:

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va uning jamiyatda tutgan o'rni;

pedagoglik kasbi. Pedagoglik kasbining paydo bo'lishi va ravnaqi;

Sharq mutafakkirlari (Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqalar) va G'arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o'rni haqida fikrlari;

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoevning ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, o'quvchilarning puxta bilim olishlarini ta'minlashda pedagogning tutgan o'rni haqidagi fikrlari;

intellektual salohiyatli barkamol shaxsni shakllantirishga qo'yilgan talablar;
pedagogika fan sifatida uning predmeti, maqsad va vazifalari, pedagogika fanining tuzilishi;

ilmiy pedagogik tadqiqotlarning nazariy va amaliy jihatlari;

didaktika – ta'lim nazariyasi sifatida ta'lim paradigmalari;

pedagogik mahoratni egallash yo'llari;

shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi;

tarbiya nazariyasi;

xorijiy mamlakatlar ta'lim-tarbiya konsepsiyasining asosiy g'oyalari.

Ta'lim-tarbiya tizimida pedagogika fanlarining o'rni va ahamiyati. "Pedagogika" fanining tarmoqlari, boshqa fanlar bilan aloqadorligi va asosiy kategoriyalari. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari. "Umumiy pedagogika" fanining obyekti, predmeti va tuzilishi. Ta'limda zamonaviy yondashuvlar. Gnoseologik yondashuv. Tizimli yondashuv. Texnologik yondashuv. Integrativ yondashuv. Innovatsion yondashuv. Individual-faoliyatli yondashuv. Kompetensiyaviy yondashuv. Akmeologik yondashuv. Aksiologik yondashuv. Psixogenetik yondashuv. XXI asr pedagogikasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlari va pedagogik konsepsiyalar.

O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonlari. Mustaqillik yillarida inson kapitalini yaratish borasida amalga oshirilgan islohotlar. O'zbekistonda komil insonni tarbiyalashning huquqiy asoslari. Ta'lim sohasida islohotlarni amalga oshirishning asosiy bosqichlari. Ta'lim tizimi va ta'lim turlari. Yangi tahriridagi O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining mazmuni va ahamiyati.

Ta'lim muassasasi menejmenti. Ta'lim muassasasida davlat – jamoat boshqaruvining psixologik-pedagogik asoslari. "Boshqaruv" ("menejment") tushunchasining mohiyati. "Ta'lim muassasasi faoliyatini boshqarish" tushunchasining tavsifi. Ta'lim muassasasi menejerining huquq va majburiyatlari. Ta'lim muassasasini boshqarish vazifalari va prinsiplari. Ta'lim muassasasi rahbari va uning o'rinbosarlari, ularning huuqlari va majburiyatlari. Pedagogik jamoa va uning ish uslubiyotlari. Pedagog kadrlar malakasini oshirish va ularni attestasiyadan o'tkazish, yosh o'qituvchilar bilan ishlash. Oliy ta'lim muassasalarida ichki nazorat vazifalari, prinsiplari, tashkiliy shakllari va metodlari.

Tarbiya nazariyasi. Tarbiya jarayonining tasnifi, mohiyati va mazmuni. Tarbiya jarayoni mazmuni hamda tarbiyalanganlik mezonlari. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari. Tarbiya metodlari va usullari. Tarbiya metodlarining maqsadi, printsinlari, mazmuni va o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlariga, tarbiyalanganlik darajasiga bog'liqligi. O'zbek xalq pedagogikasida tarbiya metodlari. Tarbiyada ibrat-namuna ko'rsatishning tutgan o'rni. Ishontirish

metodlari, hikoya, munozara, suhbat, ma'ruza va boshqalar. Tarbiya metodlari: muhokama, ishonch bildirish, tushunish, hamdardlik bildirish, rag'batlantirishi tanqid va boshqalar. Ijtimoiy xulq-atvor tajribasini shakllantirish metodlari. Tarbiya turlari.

Jamoa haqida tushuncha. Bolalar jamoasi – yagona pedagogik jaryayonning asosiy shakli. Mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish ta'limning asosiy maqsadi sifatida. Sharq mutafakkirlari (Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Avloniy va boshqalar) barkamol shaxsga xos fazilatlar haqida. Shaxsning boshqalar bilan muloqot qilishga ehtiyoji. Shaxsning jamoada qaror topishi. Sharq mutafakkirlari jamoa va uning shaxsga ta'siri to'g'risida. Jamoaning pedagogik vazifalari. Jamoaning turlari. Bolalar va yoshlar jamoasining belgilari va tuzilishi. Jamoaning tarkib topish mexanizmi va bosqichlari. Bolalar uyushmalariga pedagogik rahbarlik.

Milliy tarbiya usullari va vositalari. Milliy tarbiya mazmuni va mohiyati. Milliy tarbiya mezonlari, usullari va vositalari. Yoshlarda ilmiy va umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish zaruriyati. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi.

Aqliy va axloqiy tarbiya. Ilmiy dunyoqarash, tafakkur va milliy mafkurani shakllantirish o'quv-tarbiya jarayoni maqsadi sifatida. Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati. Ilg'or ilmiy dunyoqarashning asosiy tarkibiy qismlari: ilmiy qarash, e'tiqod, ilmiy tafakkur. Aqliy tarbiyaning vazifalari va mazmuni. Bilim, malaka va ko'nikmalarning shakllanishi – aqliy tarbiya asosi sifatida. O'quvchilarning intellektual rivojlanishi. Umumiy ta'lim fanlarini o'qitishda aqliy faoliyat madaniyati, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish. O'quvchilarni yuksak ma'naviy-axloqiy tarbiyalash. Prezident Sh. Mirziyoyev asarlarida shaxs, jamiyat, oila masalalari. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mezonlari.

Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida. Bozor munosabatlari hamda iqtisodiy islohotlar sharoitida tarbiyaning vazifalari va mazmuni.

Ekologik tarbiya o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida. Ekologik ong va madaniyatni shakllantirish. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar hamda oilada ekologik tarbiyaning shakl va metodlari.

Fuqarolik tarbiyasi. Shaxsni shakllantirish, kamol toptirish jarayonida fuqarolik tarbiyasining vazifalari va mazmuni. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va O'zbekistonning Prezidenti Sh.Mirziyoyev asarlarida yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalalari. Fuqarolik tarbiyasining vazifalari ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi. Fuqaroning yetuklik mezonlari. O'quvchilarni fuqarolik ruhida tarbiyalashda davlat ramzlaridan foydalanish. Fuqarolik tarbiyasining umuminsoniy jihatlari; tinchlikni saqlash, ekologik muammolar, tinchlik va jahon badiiy madaniyatini saqlash, iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorlik. Vatanparvarlik va baynalmilallik – fuqarolik tarbiyasining asoslari. Vatanni sevmok – iymondandir "Baynalmilallik" tushunchasining mohiyati xalqlar do'stligi, tenglik birodarlik hamjihatlik, boshqa millat vakillari, ularning urf-odatlarini an'analariga hurmat, ehtirom. Vatanparvarlik va baynalmilallik tarbiyasining mazmuni va metodlari, uning tashkil qilish shakllari. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi.

Huquqiy tarbiya o'quvchilarda huquqiy ong va xulq atvorni shakllantirish fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismi sifatida. Huquqning ijtimoiy vazifalari: boshqaruvchi, tartibga soluvchi, ximoya qiluvchi, muhofaza etuvchi tarbiyaviy. Huquqiy tarbiyaning tuzilishi va huquqiy savodxonlik (huquqiy bilimlar) – boshlang'ich huquqiy bilimlarni egallash, axloqiy va siyosiy his-tuyg'ular qonunga hurmat, fuqarolik shon-sharafini his qilish, Huquqiy tafakkur – huquq me'yorlari nuqtai nazaridan kishilarning hatti xarakatlari fe'l-atvorini baholash. Huquqiy madaniyat-hukukiy tarbiyaning asosi sifatida. Huquqiy madaniyatning tuzilishi, me'yorlarni bilish, ulardan foydalanish ko'nikmasi. Huquqni tarbiyaning mazmuni metodlari va tashkiliy shakllari. Yoshlar o'rtasida huquqbuzarlikning oldini olishda huquqiy tarbiyaning ahamiyati.

Mehnat tarbiyasi. Shaxsni kamol toptirish jarayonida mehnat tarbiyasining maqsadi va vazifalari. Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida. Mehnatning mohiyati va vazifalari. Mehnat qilish ongning bosh vazifasi, odamlarda ongli mehnatkash, mulkdorlik psixologiyasini shakllantirish. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ta'lim muassasalarida mehnat tarbiyasi tizimi va uning mazmuni. Mehnat faoliyatining asosiy turlari: o'quv mehnati, ijtimoiy foydali mehnat, o'z-o'ziga xizmat qilish mehnati ishlab chiqarish mehnati. Bozor munosabatlarini rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar sharoitida iqtisodiy tarbiya vazifalari, metodlari va mazmuni.

Nafosat tarbiyasi. Nafosat tarbiyasining maqsad va vazifalari. Maktabda nafosat tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlari. Nafosat tarbiyasida umuminsoniy va milliy, ma'naviy qadriyatlardan foydalanish. Ta'lim jarayonida nafosat tarbiyasi. San'at asarlari, dunyo va milliy madaniyat, tarixiy va me'moriy yodgorliklarni, Vatan tabiati boyliklarini qadrlash va avaylab asrash ko'nikmalarini shakllantirish. Yoshlarning nafosat tarbiyasida salbiy holatlarning oldini olish (yoshlar orasida ma'naviy jihatdan saviyasiz san'at asarlarining kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik).

Jismoniy tarbiya. Shaxsning har tomonlama kamol topishida jismoniy tarbiyaning o'rni va vazifalari haqida. Jismoniy tarbiya konsepsiyasi. Sharq mutafakkirlari jismoniy tarbiya haqida. O'quvchi - yoshlarni jismoniy tarbiyalashning kompleks dasturi. Jismoniy tarbiyaning chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik bilan bog'liqligi. Jismoniy tarbiyaning tashkiliy shakllari. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, jismoniy tarbiya va sport seksiyalari. Ommaviy bayramlar, musobaqalar. Turizm. Spartakiadalar. O'quvchi-yoshlar salomatligini mustahkamlash va chiniqtirishda tabiiy omillardan foydalanish. O'quvchi-yoshlar sport majmualarining o'ziga xos xususiyatlari.

Gigiyenik tarbiya. O'quvchilar gigiyenasi muammolari. O'quvchi-yoshlarning turmushi, mehnati dam olishining kun tartibi, o'quvchilarning o'z-o'zini jismoniy chiniqtirishni tarbiyalashga rag'bat uyg'otish. Oilada bolalarning jismoniy tarbiyasi. Ular tarbiyasining jinsiy va axloqiy-estetik jihatlari. O'quvchi-yoshlarni kashandalik va alkogolizmga nafrat ruhida tarbiyalashning jismoniy va axloqiy jihatlari.

Oilaviy tarbiya. Jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida oila tarbiyasining konseptual asoslari; umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, to'g'rilik, or-nomus,

qadr-qimmat, mehr-shafqat, insonparvarlik va mehnatsevarlik, yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytara olish kabi fazilatlarni shakllantirish. Oila va uning tarbiyaviy vazifalari. Oilaning hozirgi davrdagi muammolari. Oila aʼzolarining axloqiy munosabatlari. Oila tarbiyasining huquqiy asoslari. Davlat va hukumatning oilani mustahkamlashga gʻamxoʻrligi. "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot institutining vazifalari va faoliyatining mazmuni. "Maktab, oila va jamoatchilik" konsepsiyasining asosiy yoʻnalishlari, jamoatchilikning oʻzaro aloqadorligi shakllari. Oʻquvchi-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash. Jinsiy tarbiya.

Didaktika – taʼlim nazariyasi sifatida. Taʼlim jarayoni mohiyati. Didaktikaning asosiy tushunchalari va pedagogik jarayon. Taʼlim jarayoni yagona tizim sifatida. Taʼlim borliqni bilishning oʻziga xos shakli sifatida. Oʻqitish va oʻqish jarayonlari tavsifi, ularning taʼlim jarayonidagi oʻzaro aloqasi. Sharq va Gʻarb mutafakkirlarining gneseologik gʻoyalari taʼlim jarayonining asosi sifatida. Oʻqitishning taʼlimiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarining birligi. Oʻqitish mazmuni va tuzilishi. Oʻquv reja va dasturlar (kalendar-tematik reja). Taʼlim qonuniyatlari va tamoyillari.

Taʼlim metodlari va vositalari. Hozirgi zamon didaktikasi va xususiy metodikasida taʼlim metodlarini tavsiflashga turlicha yondashuvlar. Taʼlim metodlari va usullari haqida tushuncha. Taʼlim metodlarining tavsifi. Taʼlim mazmunining oʻziga xos xususiyatlari va oʻquvchilarning bilish faoliyati, rivojlanish darajasiga koʻra taʼlim metodlarini faollashtirish yoʻllari. Taʼlim metodlarini takomillashtirish. Pedagogika tajribasida taʼlim metodlari samaradorligini oshirish yoʻllari. Taʼlim vositalari.

Taʼlim shakllari, metodlari va vositalari tasnifi. Oʻqitish shakllari va turlari. Taʼlim metodlari tasnifi. Taʼlim vositalari. Individual, individual-guruhli, sinf-dars, maʼruza-seminarli, sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari, maktab va maktabdan tashqari, OTM va OTMdan tashqari taʼlim shakllari. Pedagogik tizimlarning asosiy turlari (Arxaik, Qadimgi, Avesto, Yunon, Oʻrta asr, Yangi, Xorijiy). Taʼlim metodlari tasnifi (Anʼanaviy (manbasiga koʻra) taʼlim metodlari, Oʻquvchilarning bilish faoliyati tavsifiga koʻra taʼlim metodlari, Asosiy didaktik maqsadlariga koʻra taʼlim metodlari, Taʼlimning binar metodlari, Yaxlit yondashuv boʻyicha taʼlim metodlari. Taʼlimning interfaol metodlari). Taʼlim olish shakllari (ishlab chiqarishdan ajralgan holda taʼlim olish (kunduzgi), ishlab chiqarishdan ajralmagan holda taʼlim olish (sirtqi, kechki, masofaviy), dual taʼlim, oilada taʼlim olish va mustaqil taʼlim olish, katta yoshdagilarni oʻqitish va ularga taʼlim berish, inklyuziv taʼlim, eksternat tartibidagi taʼlim, mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash). Taʼlim vositalari. Taʼlim vositalarini tanlash (taʼlim beruvchi uchun, taʼlim oluvchi uchun, dars oʻtkazich uchun). Matnli vositalar, tasvirli vositalar, audiyovizual vositalar, yordamchi vositalar, modeli vositalar, haqiqiy vositalar.

Dars tiplari va tuzilishi. Taʼlimning asosiy shakli – dars va unga qoʻyiladigan didaktik talabalar. Dars turlari va tiplari. Darsga tayyorgarlik. Nostandart darslar. Hozirgi zamonda dars va darslarni modernizasiyalash yoʻllari. Darsda oʻquvchilar oʻquv faoliyatini tashkil qilishning yalpi, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini uygʻunlashtirish. Taʼlimni tashkil etishning noanʼaviy shakllari: oʻquv dialogi,

munoza, didaktik (ishbop, rolli) o'yinlar, trening, press-konferensiya, o'tkir zehnlilar klubi, musobaqa darslari, auksion va boshqalar. Ma'ruza va seminar mashg'ulotlari, maslahatlar, ekskursiyalar, praktikumlar, konferensiyalar. O'quvchilarning uy vazifalari, uni tashkil etish mazmuni va metodlari. Ta'lim shakllarini rivojlantirish istiqbollari. O'quv ishlarini tashkil etishning darsdan tashqari shakllari: fan to'garaklari, ilmiy jamiyatlar, olimpiadalar va boshqalar. O'qituvchi faoliyatida, o'quv ishlari turli shakllarining o'zaro aloqadorligi.

Ijtimoiy pedagogika amaliy faoliyat sohasi. Ta'lim oluvchilarning, ular o'tanasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari. Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish. Ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi. Ijtimoiy pedagogik faoliyatda qo'llaniladigan metodlar. Ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlar.

Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. Eng qadimgi yodgorliklarda inson tarbiyasiga oid fikrlar. Qadimgi davrlarda tarbiyaning kelib chiqishi va uni kishilarning mehnat faoliyati bilan bog'liqligi. Ibtidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Fol'klor namunalarida og'zaki ta'lim usullarining ifodalanishi. Qadimgi afsonalar, qo'shiqlar, "O'gitnoma"larda axloq-odob, ta'lim-tarbiyaga oid masalalarning ifodalanishi. Qadimgi davlatlar So'g'diyona, Baktريا va Xorazmda ta'lim-tarbiyaning rivojlanishi. Mazkur davlatlarda pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi.

Eng Qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalari. "Avesto" – eng qadimgi ma'rifiy yodgorlik namunasi. Qadimgi "Avesto", xorazm, so'g'd, uyg'ur, turkiy-run yozuvlarining ta'lim-tarbiyani rivojlantirishdagi o'rni. O'rxun-Enasoy obidalari, ularning ma'rifiy ahamiyati. Kultegin, Bilga xoqon, Tunyuquq bitiklarida ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Turkiy xalqlarning dastlabki savod maktablari. Somoniylar davlatida yoshlarga harbiy-jismoniy tarbiya berish.

VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikr taraqqiyoti. Islom dini yoyilishining ta'lim-tarbiyaga ta'siri. Musulmon maktablarida ta'lim-tarbiya mazmuni. Arab tilini savdo va madaniy aloqalar tiliga aylanishi. Qur'onning muqaddas falsafiy-axloqiy asar sifatida o'rganilishi. G'azzoliy – islom falsafasi va pedagogikasining asoschisi sifatida. "Kimyoyi saodat" asari va uning tarbiya taraqqiyotidagi o'rni. Masjidlar va ular xuzuridagi maktablarda ta'lim-tarbiya. Savod chiqarish uslubiyoti "Chor kitob" va "Xaftiyak" – dastlabki savod darsliklari sifatida.

Hadis ilmining paydo bo'lishi. Imom Ismoil al-Buxoriy, At-Termiziy va boshqa muxaddislarning hadis ilmini yaratishdagi xizmatlari. Imom al-Buxoriyning "As-sahih", "Al-adab al-mufrad" asarlarining inson ma'naviy kamolotining tarkib topishidagi o'rni.

Sharq Uyg'onish davri va unda ta'lim-tarbiyaning taraqqiy etishi. Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning umumpedagogik hamda didaktik g'oyalari. Maxmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Axmad Yugnakiylarning ta'limiy-axloqiy qarashlari. Maxmud Koshg'ariy va uning "Devoni lug'atit turk" asari. Yusuf Xos Xojibning "Kutadg'u-bilig" asari ta'lim-tarbiyaga oid birinchi asar sifatida. Kaykovusning Qobusnoma asari. Asarning pedagogik fikr taraqqiyotida tutgan o'rni. Ahmad Yugnakiy va uning

“Hibbat ul-haqoyiq” asari. Hunar o‘rganishga doir risolalar haqida. Ahmad Yassaviy “Xikmatlar” ining axloqiy-ma‘rifiy ahamiyati. Ta‘limiy-axloqiy asarlarning tarjima qilinishi. Shayx Sa‘diyning yirik axloqiy-falsafiy asari “Guliston”ning shaxs kamolotini tarkib toptirishdagi o‘rni.

XIV-XVI asrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar. XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda ta‘lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. Ijtimoiy hayotning tarbiya, ta‘lim va pedagogik fikr taraqqiyotiga ta‘siri. Ilm-fan, ta‘lim-tarbiyaning ravnaq topa borishi. Movarounnahrda Amir Temurning markazlashgan mahalliy davlatining paydo bo‘lishi va uning ilm-ma‘rifatning taraqqiy etishdagi o‘rni. Maktab va madrasalarda ta‘lim-tarbiya xususiyatlari. Tabiiy fanlarni o‘qitishning rivojlanishi. Ulug‘bekning ilm-ma‘rifat sohasidagi xizmatlari. Uning davrida ta‘lim-tarbiya tizimi. Zahiriddin Muhammad Boburning ilm-ma‘rifat, ta‘lim-tarbiya sohasidagi xizmatlari. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Davoniy, Xusayn Voiz Koshifiylarning ta‘limiy-ahloqiy merosi. Navoiyning “Hayrat ul – abror”, “Mahbub ul-qulub” asarlari. Navoiyning maktab va madrasalarni rivojlantirishdagi faoliyati. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylarning axloqiy qarashlari. Jomiyning “Tuhfatul ahror”, Alisher Navoiyning “Maxbub ul-qulub” asarlarining shaxs kamolotidagi ahamiyati. Davoiyning axloqiy qarashlari. “Axloqiy Jaloliy” asarining pedagogik fikr taraqqiyotida tutgan o‘rni. Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy qarashlari. “Futuvvatnomai Sultoni” asari va uning ahloqiy tarbiyada tutgan o‘rni.

XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar. XVII–XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida Buxoro, Quqon va Xiva xonliklarida ilm-fan taraqqiyoti. Xonliklarda masjid-madrasalarning bunyodga kelishi. Madrasalarda “Qur‘on”, “Tafsir”, “Odob as-solixin”, “Sabot ul-ojizin”, “Kimyoi saodat”, “Hadis”, “Shamoyil ul-nabi”, “Hikmat ul-ayn”larning o‘rganilishi. Qo‘qon va boshqa xonliklarda qizlar maktablari. Jahon Otin Uvaysiy va uning qizlar maktabi. Mahmud Qoshg‘ariy va uning “Odob as-solihin” asari, Kaykovusning “Kobusnoma”, Sa‘diyning “Guliston” kabi ma‘rifiy asarlarining turkiy tilga tarjima kilinishi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida tarbiya va pedagogik fikrlar. Turkiston o‘lkasida islom-diniy tarbiyaviy muassasalarning an‘anaviy tizimi. Turkistonda chorizm maktab siyosatining boshlanishi. Musulmon maktablariga bo‘lgan salbiy munosabat. Turkiston o‘lkasida pedagogik fikrlarning paydo bo‘lishi, Siddikiy, Hamza, Shakuriy, Avloniy, Behbudiy va boshqalarning maktab va maorifning rivojlantirishdagi xizmatlari. Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining paydo bo‘lishi. I.Gaspirali faoliyati. Munavvar Qori, Avloniy, Shakuriy, Behbudiyning yangi usul maktablarini tashkil etish borasidagi faoliyati. Saidrasul Said Azizovning “Ustodi avval” darsligi, Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida ta‘lim-tarbiya tizimi. Hamza, Fitrat faoliyati va milliy pedagogik merosi. 1917-1990 yillarda O‘zbekistonda maktab va pedagogika fani. 1917 yilda O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi e‘lon qilingunga qadar bo‘lgan davrda O‘zbekistonda xalq ta‘limi va pedagogika fanida turg‘unlik. 70 yil davomida xalq ta‘limida adolatsiz milliy siyosatning amalga oshirilishi. Xalq maorifi sohasida maktab darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarining yaratilishi. Ta‘lim-tarbiya jarayonining mustabid tuzum maqsadiga muvofiq tashkil

etilishi va uning salbiy oqibatlari. O'zbekiston ma'rifatparvarlari Shakuriy, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza, Fitrat va boshqalarning ilmiy-pedagogik merosining o'rganilishi.

Jahon pedagogika fani rivojlanishi tarixining bayoni. Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida ta'lim-tarbiya. Qadimgi Sharq davlatlarida va Yunonistonda pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi. Qadimgi Yunoniston (Sparta, Afina) davlatlarida tarbiya va ta'lim tizimi. Qadimgi yunon faylasuflari (Suqrot, Aflotun, Arastu va Demokrit) ta'limotida tarbiya masalalari. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ta'lim-tarbiya. Y.A.Komenskiyning pedagogik tizimi. Uning pedagogika fani taraqqiyotidagi ahamiyati. Rus pedagog olimlarining pedagogik g'oyalari.K.D.Ushinskiyning pedagogik merosi. XIX asr va XX asr boshlarida G'arbiy Yevropa, AQSh, Rossiyada pedagogik ilohotlar va uning asosiy oqimlari. Jahon mamlakatlarida pedagogikaning fan sifatida rivojlanishi.

Hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlari ta'limi va pedagogika fani. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimi va maktablarda ta'lim-tarbiya amaliyoti. Jahon mamlakatlaridagi zamonaviy-ijtimoiy bilimlar tizimida pedagogika fani va uning asosiy omillari. AQSh, Yaponiya, Angliya, Turkiya, Janubiy Koreyada ta'lim va tarbiya tizimi, mazmuni va taraqqiyoti.

Ta'lim innovatsiyalari. Pedagogik texnologiyaning ilmiy-nazariy asoslari. Ta'lim innovatsiyalarining mohiyati, nazariy asoslari va turlari. Shaxsga yo'naltirilgan va rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarining mohiyati. Muammoli ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol metodlari va strategiyalari, ta'limda keys texnologiyasi, ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalarilari.

Kreativ fikrlash pedagogikasi. Kreativ fikrlash pedagogikasining o'ziga xos xususiyatlari. Shaxs kreativligini aniqlash metodlari. Evristik o'qitish va o'z-o'zini ijodiy rivojlantirish metodikalari. Tanqidiy fikrlash texnologiyalari. O'quv-loyihaviy ta'limning asosiy tamoyillari. Ta'lim muassasalarida bolalar faoliyati turlari va ularni tashkil etishga qo'yiladigan umumiy talablar hamda pedagogik muloqot va pedagogik munosabatlar texnologiyasi.

Ilg'or xorijiy tajribalar. Zamonaviy ta'limdagi ilg'or xorijiy tajribalar. Ta'lim tizimida xalqaro baholash dasturlari va ularni amalda qo'llash. Ta'lim tizimida xalqaro baholash dasturlarilari va ularni amalda qo'llash. Zamonaviy ta'limdagi ilg'or xorijiy tajribalar.

BAHOLASH MEZONI

Maksimal ball – 100 ball.

5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala
5,00 – 4,96	100	4,30 – 4,26	86	3,60 – 3,56	72
4,95 – 4,91	99	4,25 – 4,21	85	3,55 – 3,51	71
4,90 – 4,86	98	4,20 – 4,16	84	3,50 – 3,46	70
4,85 – 4,81	97	4,15 – 4,11	83	3,45 – 3,41	69
4,80 – 4,76	96	4,10 – 4,06	82	3,40 – 3,36	68
4,75 – 4,71	95	4,05 – 4,01	81	3,35 – 3,31	67

4,70 – 4,66	94	4,00 – 3,96	80	3,30 – 3,26	66
4,65 – 4,61	93	3,95 – 3,91	79	3,25 – 3,21	65
4,60 – 4,56	92	3,90 – 3,86	78	3,20 – 3,16	64
4,55 – 4,51	91	3,85 – 3,81	77	3,15 – 3,11	63
4,50 – 4,46	90	3,80 – 3,76	76	3,10 – 3,06	62
4,45 – 4,41	89	3,75 – 3,71	75	3,05 – 3,01	61
4,40 – 4,36	88	3,70 – 3,66	74	3,00	60
4,35 – 4,31	87	3,65 – 3,61	73	3,0 dan kam	60 dan kam

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel.
2. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-637-son Qonuni. 2020-yil 23 sentabr.
3. Innovatsion faoliyat to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-630-son Qonuni. 2020 yil 24 iyul.
4. O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-son Farmoni. 2020-yil 6-noyabr.
5. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni. 2019 yil 8 oktabr
6. Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-son Qarori. 2017 yil 20 aprel.
7. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-son Qarori. 2018 yil 5 iyun.
8. Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 997-son Qarori. 2018-yil 8-dekabr.
9. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 824-son Qarori. 2020-yil 31-dekabr.
10. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz // O'zR Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutq. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 10 b.
11. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak / Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
12. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 9 b.
13. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi 1993.

14. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: Xalq me'rosi nashriyoti. 1993.
15. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-tom. –T.: Fan, 1998.
16. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. O'n besh tomlik. 13-tom. – T.: Adabiyot va san'at, 1996.
17. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. Odob durdonalari. – T.: O'zbekiston, 1990.
18. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-jome' as-saxix. – T.: O'zbekiston, 1991.
19. Isakulova N., Jo'rayev D., Jumaniyozova M., Yo'ldasheva S., Jumayev A., Sharipova S., Ataxanova S., Karimova N. Umumiy pedagogika (1-qism). Darslik. – Toshkent: Zuxro baraka biznes, 2025. – 360 bet.
20. Isakulova N., Jumaniyozova M. Umumiy pedagogika (2-qism). Darslik, Toshkent: Zaxro Baraka biznes, 2025. – 360 b.
21. Isakulova, N. (2024). Zamonaviy ta'limning asosiy tendensiyalari va o'ziga xos xususiyatlari. *Hayka u innovatsii*, 1(1), 25–31. *извлечено от* <https://inlibrary.uz/index.php/ilm-fan-va-innovatsiya/article/view/32697>
22. Hoshimov K, Nishonova S. Pedagogika tarixi. II—qism. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. T.: 2005.
23. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: Meros, 1992.
24. Qur'oni Karim. -T.: Cho'lpon, 1993.
25. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. –T.: O'qituvchi, 2001.
26. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. O'zbekiston, 2000.
27. Musurmonova, A., Isakulova, N. J., Jumaniyozova, M. T., & Jumayev, A. SH. (2020). Umumiy pedagogika.
28. Nilufar Isakulova. (2023). EDUCATIONAL PROJECT AND ITS ESSENCE. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 5(12), 06–15. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume05Issue12-02>
29. Xasanboyeva O., Xasanboyev J., Hamidov X. Pedagogika tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1997.
30. Pedagogika nazariyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik./ M.X.To'xtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007. – 380 b.
31. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. (Tuzuvchi: O. Xasanboyeva). – T.: O'qituvchi, 1990.
32. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. –T.: Moliya, 2003.
33. O'zbek pedagogikasi antologiyasi 1-2 t. (tuzuvchilar K.Hoshimov. S.Ochil. O'qituvchi, 1995-2000).
34. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. –T.: Fan, 2000.
35. Xasanboev J.Y. va boshqalar. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – T.: Fan, 2006.
36. Hasanboyeva O., Xasanboyev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi. – T.: G'afur G'ulom. 2005
37. Xasanboev J., To'raqulov X., Xaydarov M., Xasanboyeva O., Usmonov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 672 b.

38. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (so'z boshi muallifi B.Tuxliev). – T.: Yulduzcha, 1990.

39. Исакулова, Н. (2024). Историческое происхождение педагогических концепций. in *Library, 1(1)*, 100-105. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/34867>

40. Подласый И.П. Педагогика. 1 -2 т. – М.: Владос, 1999.

Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti:

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.edu.uz
4. www.ziyo.edu.uz
5. www.gov.uz
6. www.ziyonet.uz
7. www.istedod.uz
8. www.cer.uz
9. www.lex.uz

41. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi 1993.
42. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq me'rosi nashriyoti. 1993.
43. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-tom. – T.: Fan, 1998.
44. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. O'n besh tomlik. 13-tom. – T.: Adabiyot va san'at, 1996.
45. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. Odob durdonalari. – T.: O'zbekiston, 1990.
46. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-jome' as-saxih. – T.: O'zbekiston, 1991.
47. Iskulova N., Jo'rayev D., Jumaniyozova M., Yo'ldasheva S., Jumayev A., Sharipova S., Ataxanova S., Karimova N. Umumiy pedagogika (1-qism). Darslik. – Toshkent: Zuxro baraka biznes, 2025. – 360 bet.
48. Iskulova N., Jumaniyozova M. Umumiy pedagogika (2-qism). Darslik, Toshkent: Zuxro Baraka biznes, 2025. – 360 b.
49. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. II–qism. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. T.: 2005.
50. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: Meros, 1992.
51. Qur'oni Karim. – T.: Cho'lpon, 1993.
52. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2001.
53. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. O'zbekiston, 2000.
54. Nilufar Iskulova. (2023). EDUCATIONAL PROJECT AND ITS ESSENCE. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 5(12), 06–15. <https://doi.org/10.37547/tajsej/Volume05Issue12-02>
55. Xasanboeva O., Xasanboev J., Xamidov X. Pedagogika tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1997.
56. Pedagogika nazariyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. M.X.To'xtaxodjaevaning umumiy taxriri ostida. "Iqtisod-moliya", 2007.-380 b.
57. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. (Tuzuvchi: O. Xasanboeva). – T.: O'qituvchi, 1990.
58. Полласый И.П. Педагогика. 1-2 т. – М.: Владос, 1999.
59. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003.
60. O'zbek pedagogikasi antologiyasi 1-2 t. (tuzuvchilar K.Hoshimov, S.Ochil. O'qituvchi, 1995-2000).
61. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan, 2000
62. Xasanboev J.Y. va boshqalar. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – T.: Fan, 2006
63. Hasanboeva O., Xasanboev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi. – T.: G'afur G'ulom. 2005
64. Xasanboev J., To'raqulov X., Xaydarov M., Xasanboeva O., Usmonov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 672 b.
65. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (so'z boshi muallifi B.Tuxliev). – T.: Yulduzcha, 1990.

66. Исакулова, Н. (2024). Историческое происхождение педагогических концепций. *in Library, 1(1), 100–105.* извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/34867>

67. Исакулова, Н. (2024). Zamonaviy ta'limning asosiy tendensiyalari va o'ziga xos xususiyatlari. *Наука и инновации, 1(1), 25–31.* извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/ilm-fan-va-innovatsiya/article/view/32697>

68. Musurmonova, A., Isakulova, N. J., Jumaniyozova, M. T., & Jumayev, A. SH. (2020). Umumiy pedagogika.